



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№3

Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB[®]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

OpenAIRE

ROAD

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

BASE

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

Crossref



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2026



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 2026-yil, mart.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukurimova Dinara Rustamxanovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirathbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhriddinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoirazimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyea Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

RAQAMLI IQTISODIYOTDA TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI FAOLIYATINING IQTISODIY XAVFSIZLIGIGA TA'SIR ETUVCHI TIZIMLASHTIRILGAN TAHDIDLAR.....	40
Qodirov Tuyg'un Uzoqovich, Nabiyev Bexzod Shavkatovich	
SANOAT TARMOQLARINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSIYA VA TEKNOLOGIK MODERNIZATSIYANING O'RNI	44
Boboqulov Sanjar Bahromqulovich	
YASHIRIN IQTISODIYOTNI BAHOLASHNING USLUBIYOTI VA UNING SOLIQ TIZIMIDA QO'LLANILISHI	49
To'xtabayev Oybek Odilovich	
YASHIRIN IQTISODIYOTNI QISQARTIRISHDA RAQAMLI TEKNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH BO'YICHA ILG'OR XORIJIY TAJRIBALAR.....	56
Ismailov Bobir Salomovich	
TIJORAT BANKLARI INVESTITSIYA FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY-NAZARIY JIHATLARI	62
Yangiboyev F.B.	
MINTAQAVIY IQTISODIY SALOHİYATDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI BAHOLASH.....	68
Turayev Og'abek Kaxramonovich	
XORIJIY MAMLAKATLARDA TO'QIMACHILIK KLASSTERLARINI RIVOJLANTIRISH TAJRIBASI.....	75
Yusupova Feruza Yo'ldoshevna	
BANK XIZMATLARI SIFATINI BOSHQARISHNING INTEGRATSION VA ADAPTIV MODEL.....	83
Ibroximov Ilxomjon Shavkatjon o'g'li	
QURILISH TASHKILOTLARI FAOLIYATINING MOLİYAVIY BARQARORLIGINI EKONOMETRIK MODELAR ASOSIDA BAHOLASH	89
Qidirniyazov Ajiniyaz Sherniyazovich	
ICHKI NAZORAT VA KORPORATIV BOSHQARUV TIZIMIDAGI XAVFLARNI BOSHQARISH	94
Islamova Nargiza Mirzaxidovna	
TURIZMNING MINTAQADA IQTISODIY RIVOJLANISHIGA TA'SIRI	104
Rasulova Muxabbat Teshabayevna, Normurodov Sarvar Norboy o'g'li	
O'ZBEKISTONDA INVESTITSİYALARNI JALB QILISH ORQALI INVESTITSION JOZIBADORLIKNI OSHIRISHNING HOZIRGI KUNDAGI HOLATI TAHLILI	111
Begamov S.X.	
RETHINKING JOB CREATION: ONTOLOGICAL AND EPISTEMOLOGICAL FOUNDATIONS OF MACROECONOMIC EMPLOYMENT ANALYSIS.....	116
Zakhidov Azizbek Rustamovich	
HUDUDIY TURIZM KLASSTERLARINI SHAKLLANTIRISH VA ULARNING IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH.....	125
Ro'zimova Xusnora Mirzobek qizi	
SUG'URTACHILIK VA O'ZBEKISTONDA SUG'URTA SEKTORINING HOLATI.....	129
O'runboyeva Sotima Alisher qizi	
GO'SHT VA GO'SHT MAHSULOTLARINI SANOAT USULIDA QAYTA ISHLASHDA XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBALARI.....	134
Xaydarova Sitara Suranbay qizi	



GO'SHT VA GO'SHT MAHSULOTLARINI SANOAT USULIDA QAYTA ISHLASHDA XORIJIY MAMLAKATLAR TAJIRIBALARI

Xaydarova Sitora Suranbay qizi

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti (TDIU) tayanch doktoranti (PhD), O'zbekiston

E-mail: sitoraxaydarova1996@gmail.com

ORCID: 0009-0003-2997-7093

Annotatsiya. Maqolada go'sht va go'sht mahsulotlarini sanoat usulida qayta ishlashda ilg'or xorijiy tajribalar hamda yondashuvlar, shuningdek ularni O'zbekiston sharoitida qo'llashning muhim jihatlari va ayrim kamchiliklari yoritilgan. Xorijiy tajribalardan foydalanishning iqtisodiy mexanizmga qanday darajada ta'sir ko'rsatishi o'rganilgan. Mazkur maqolada go'sht va go'sht mahsulotlarini sanoat usulida qayta ishlash jarayonida Avstraliya tajribasi ilmiy-statistik manbalar asosida tahlil qilinadi hamda uni O'zbekiston sharoitiga moslashtirish imkoniyatlari baholanadi.

Kalit so'zlar: modernizatsiya, klasterlash, vertikal integratsiya, chorvachilik bazalari, barqarorlik, avtomatlashtirish, raqamlashtirish, COVID-19, Sanoat 5.0, sun'iy intellekt.

Abstract. The article examines advanced foreign experience and approaches in the industrial processing of meat and meat products, as well as the key aspects and certain limitations of their application in the conditions of Uzbekistan. The influence of applying foreign experience on changes in the economic mechanism is analyzed. Based on scientific and statistical sources, the article analyzes Australia's experience in the industrial processing of meat and meat products and evaluates the possibilities of adapting this experience to the conditions of Uzbekistan.

Key words: modernization, clustering, vertical integration, livestock bases, sustainability, automation, digitalization, COVID-19, Industry 5.0, artificial intelligence.

Аннотация. В статье рассмотрены передовой зарубежный опыт и подходы к промышленной переработке мяса и мясных продуктов, а также основные аспекты и отдельные недостатки их применения в условиях Узбекистана. Изучено влияние использования зарубежного опыта на изменение экономического механизма. В статье на основе научно-статистических источников анализируется опыт Австралии в сфере промышленной переработки мяса и мясных продуктов, а также оцениваются возможности его адаптации к условиям Узбекистана.

Ключевые слова: модернизация, кластеризация, вертикальная интеграция, животноводческие базы, устойчивость, автоматизация, цифровизация, COVID-19, Промышленность 5.0, искусственный интеллект.

KIRISH

Go'shtni qayta ishlash sanoati sezilarli texnologik o'zgarishlarni boshdan kechirmoqda. Avtomatlashtirish va robotlashtirish an'anaviy qo'l mehnatini tobora ko'proq to'ldirmoqda. Sun'iy intellekt (SI), robototexnika hamda inson–robot hamkorligidagi yutuqlar — Sanoat 5.0 ning asosiy elementlari — ushbu o'zgarishlarning markazida turibdi. Ushbu texnologiyalar COVID-19 pandemiyasi kabi global hodisalar tufayli kuchaygan doimiy ishchi kuchi tanqisligini bartaraf etish, shuningdek xavfsizroq, barqarorroq va chidamli oziq-ovqat ishlab chiqarish tizimlariga bo'lgan ortib borayotgan talabni qondirish maqsadida keng joriy etilmoqda [1].

Amalga oshirilayotgan texnologik yutuqlarga qaramay, go'shtni ikkilamchi qayta ishlash jarayonida avtomatlashtirish texnologiyalarining, ayniqsa Sanoat 5.0 sharoitida, kompleks va umumlashtirilgan tavsifi yetarli darajada shakllanmagan. Mazkur sharh ushbu ilmiy bo'shliqni to'ldirish maqsadida so'nggi texnologik ishlanmalarni o'rganish, sanoatning hozirgi ehtiyojlarini aniqlash hamda tadqiqotning asosiy muammolarini



yoritishga qaratilgan. Tadqiqot doirasida dunyoda eng ko'p iste'mol qilinadigan parranda, cho'chqa, mol va buzoq go'shtlarining hajmini ikkilamchi qayta ishlash jarayonlariga alohida e'tibor qaratiladi.

Global oziq-ovqat xavfsizligi masalalari, aholi sonining ortib borishi hamda xalqaro savdoning kengayishi sharoitida go'sht va go'sht mahsulotlarini sanoat usulida qayta ishlash masalasi strategik va muhim ahamiyat kasb etmoqda. Zamonaviy raqamlashtirish davrida ushbu soha nafaqat ichki bozorni sifatli mahsulotlar bilan ta'minlash, balki eksport salohiyatini oshirish, qo'shimcha qiymat zanjirini shakllantirish, yangi ish o'rinlarini yaratish hamda milliy iqtisodiyotning barqaror o'sishini ta'minlashda muhim omil sifatida namoyon bo'lmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ryan Wright, Sagar Parekh va Robin White go'shtni sanoat usulida qayta ishlash jarayonida robot texnologiyalari hamda inson-robot hamkorligi masalalarini tadqiq etgan. Ularning tadqiqotlarida go'shtni kesish jarayonida robot texnologiyalaridan foydalanish, inson va robot o'rtasidagi samarali hamkorlikni ta'minlash, ishlab chiqarish jarayonida xavfsizlik va samaradorlikni oshirish masalalari yoritilgan. Tadqiqotchilar, ayniqsa, ishchi kuchi resurslari yetishmovchiligi sharoitida texnologik yechimlar va xavfsiz ishlab chiqarish tizimlarini joriy etish muhimligini ta'kidlaydilar [2].

Omonov A. ning "Go'shtni qayta ishlash jarayonida termik uskunalar va ularning mahsulot sifati hamda saqlanish muddatiga ta'siri" nomli ilmiy ishida go'sht mahsulotlarining tarkibi, oziq-ovqat xavfsizligi, mahsulot sifati ko'rsatkichlari hamda termik jarayonlarning mahsulot sifatiga ta'siri keng yoritilgan. Muallif mahsulot sifatini aniqlashda tarkibiy parametrlar, issiqlik jarayonlari va texnologik uskunalarning ahamiyatini ilmiy asosda tahlil qiladi [3].

Rustamov Sh. o'zining "Go'sht mahsulotlarini ishlab chiqarishda ISO 22000 va HACCP kabi xalqaro standartlarning milliy sharoitda tatbiqi" nomli maqolasida go'sht mahsulotlarini ishlab chiqarish jarayonida texnologik modellashtirish, sifat monitoringi, xalqaro standartlar qo'llanilishi hamda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash masalalarini ilmiy jihatdan tahlil qilgan [4].

A.J. Choriyev o'zining "Go'sht-sut mahsulotlari texnologiyasi" nomli o'quv qo'llanmasida qayta ishlangan go'sht mahsulotlarini go'sht tarkibidagi asosiy oziq moddalari — oqsillar, yog'lar hamda mineral elementlar saqlangan holda iste'mol uchun qulay va xavfsiz shaklga keltirilgan mahsulotlar sifatida tavsiflaydi. Muallifning ta'kidlashicha, bunday mahsulotlar qatoriga kolbasa va sosiska mahsulotlari, go'sht konservalari, yarim tayyor mahsulotlar hamda dudlangan go'sht mahsulotlari kiradi. Ushbu mahsulotlarning muhim xususiyati shundan iboratki, ular mikrobiologik jihatdan barqaror bo'lib, uzoq muddat saqlanish imkoniyatiga ega hamda transportirovka jarayonida qulaylik yaratadi [5].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda tizimli yondashuv, statistik va taqqoslama tahlil usullari, shuningdek strukturaviy hamda analitik-sintetik metodlar qo'llanildi. Tadqiqot jarayonida rasmiy xalqaro statistik manbalar asosida qayta ishlangan go'sht mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, rivojlanish dinamikasi hamda eksport ko'rsatkichlari o'rganildi. Olingan natijalar iqtisodiy samaradorlik nuqtai nazaridan tahlil qilinib, go'shtni sanoat usulida qayta ishlash tizimini takomillashtirish imkoniyatlari baholandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Xalqaro amaliyot shuni ko'rsatadiki, sanoatlashgan qayta ishlash modeli yuqori darajadagi vertikal integratsiya, innovatsion texnologiyalar, rivojlangan logistika tizimlari hamda samarali sertifikatlash mexanizmlari asosida shakllanadi. Ushbu yo'nalishda Avstraliya tajribasi alohida e'tiborga loyiqdir. Mazkur model eksportga yo'naltirilganligi, yuqori qo'shimcha qiymat yaratishga asoslanganligi hamda sifat nazorati tizimining mukammal yo'lga qo'yilganligi bilan ajralib turadi. Shu sababli, ushbu tajribani O'zbekiston sharoitida sanoat usulida qayta ishlash tizimini takomillashtirishda andoza sifatida ko'rib chiqish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Avstraliyada qizil go'sht yetishtirish sanoati jahon bozorida yetakchi o'rinlardan birini egallaydi. Ushbu mamlakat tajribasini o'rganish va uni milliy sharoitga moslashtirish sanoat usulida qayta ishlashning iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish, boshqaruv samaradorligini oshirish hamda eksport imkoniyatlarini kengaytirish bo'yicha muhim ilmiy-amaliy xulosalar chiqarishga xizmat qiladi.

Avstraliya qizil go'sht sanoati mamlakat qishloq xo'jaligi iqtisodiyotining muhim tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Avstraliyaning rasmiy sanoat ma'lumotlariga ko'ra:

- yillik qizil go'sht eksporti qiymati 19 milliard AUD dan ortiqni tashkil etadi;
- mazkur sanoat tarmog'i mamlakat yalpi ichki mahsulotiga sezilarli hissa qo'shadi;
- 180 mingdan ortiq ish o'rinlari bevosita va bilvosita yaratilgan;
- asosiy eksport bozorlariga AQSh, Xitoy, Yaponiya va Janubiy Koreya kiradi.



Avstraliyada go'sht mahsulotlarini qayta ishlash modeli ishlab chiqarish zanjirining barcha bosqichlari o'zaro uzviy bog'langan tizim asosida tashkil etilgan. Ushbu ishlab chiqarish zanjiri quyidagi asosiy bosqichlarni o'z ichiga oladi:

Bu integratsiya ishlab chiqarish xarajatlarini optimallashtiradi va kamaytiradi, mahsulot sifatini barqarorlashtiradi hamda qo'shimcha qiymat zanjirini maksimal darajada saqlab qolishga xizmat qiladi. Ma'lumki, sanoatning iqtisodiy samaradorligi ko'p jihatdan qo'shimcha qiymat zanjirining chuqurligi bilan belgilanadi. Xomashyoni eksport qilish o'rniga tayyor va yarim tayyor mahsulotlarni eksport qilish ustuvor yo'nalish sifatida shakllangan. Bu esa iqtisodiy mexanizmga ijobiy ta'sir ko'rsatib, milliy daromadning oshishiga, bandlikning kengayishiga hamda iqtisodiy barqarorlikning ta'minlanishiga xizmat qiladi.

Quyidagi jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, Avstraliyada 2023–2024-yillar oralig'ida qayta ishlangan mol go'shti, qayta ishlangan qo'y go'shti hamda jami qayta ishlangan qizil go'sht ishlab chiqarish hajmlarining tahliliy natijalari keltirilgan [6] (1-jadval).

1-jadval. Avstraliyada qayta ishlangan qizil go'sht ishlab chiqarish hajmi (2023–2024-yillar, ming tonna)

Ko'rsatkich	2023	2024
Qayta ishlangan mol go'shti (ming tonna)	650	700 ga yaqin
Qayta ishlangan qo'y go'shti (ming tonna)	220	240
Jami qayta ishlangan qizil go'sht (ming tonna)	870	940

2023-yilda Avstraliyada qayta ishlangan qizil go'sht mahsulotlari hajmi 870 ming tonnani tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilga kelib ushbu ko'rsatkich 940 ming tonnaga yaqinlashgan. Mutlaq o'sish qariyb 70 ming tonnani tashkil etib, nisbiy o'sish sur'ati 8 foiz atrofida bo'lgan. Bu o'sish sanoatning barqaror rivojlanayotganini hamda ishlab chiqarish hajmining eksport talabi bilan uyg'un ravishda kengayib borayotganini ko'rsatadi.

Qayta ishlangan mol go'shti hajmi 2023-yilda 650 ming tonna, 2024-yilda esa 700 ming tonnaga yaqin ko'rsatkichni tashkil etgan. Ushbu segment umumiy qayta ishlangan qizil go'sht ishlab chiqarishining 74–75 foizini egallaydi.


Mol go'shti segmentining ustunligi quyidagi omillar bilan izohlanadi:

- Avstraliyaning global mol go'shti eksportidagi yetakchi mavqei;
- premium sifatli, vakuum qadoqlangan mahsulotlarga talabning yuqoriligi;
- yuqori texnologiyali qayta ishlash liniyalarining mavjudligi.

Shu jihatdan mol go'shti qayta ishlash sanoati qo'shimcha qiymat zanjirining asosiy tarkibiy qismi hisoblanadi.

Qayta ishlangan qo'y go'shti hajmi 2023-yilda 220 ming tonna, 2024-yilda esa 240 ming tonnaga yetgan. Nisbiy o'sish sur'ati qariyb 9 foizni tashkil etib, bu ko'rsatkich mol go'shti segmentiga nisbatan biroz yuqoriroqdir. Qo'y go'shti mahsulotlari eksportining kengayishi Yaqin Sharq va Osiyo bozorlarida halal standartlariga mos mahsulotlarga bo'lgan talabning ortishi bilan izohlanadi. Bu esa mahsulot diversifikatsiyasini kuchaytiradi hamda eksport risklarini kamaytirishga xizmat qiladi.

Avstraliya modeli O'zbekiston sharoitida quyidagi yo'nalishlarda qo'llanishi mumkin:





Mazkur tajriba O'zbekiston sharoitida sanoatlashgan qayta ishlash tizimini shakllantirish hamda iqtisodiy mexanizmni takomillashtirish uchun muhim ilmiy-amaliy asos bo'lib xizmat qiladi.

Quyida ilmiy tadqiqotning asosini tashkil etuvchi mamlakatlar kesimida qiyosiy tahlil keltirilgan. Mazkur tahlilda MDH mamlakatlari — O'zbekiston, Rossiya, Qozog'iston va Belarus Respublikasi, shuningdek Polsha hamda Turkiya misolida qoramollar bosh soni, chorva ozuqa ekin maydonlari, go'sht ishlab chiqarish hajmi, mamlakatga import qilingan go'sht miqdori hamda ichki bozordagi go'sht narxlari kabi ko'rsatkichlar asosiy tahlil segmentlari sifatida olingan [7] (2-jadval).

2-jadval. O'zbekiston va ayrim xorijiy mamlakatlarda chorcachilik hamda go'sht ishlab chiqarish ko'rsatkichlari (2021–2024-yillar)

№	Ko'rsatkichlar		O'zbekiston	Rossiya	Qozog'iston	Polsha	Belorusiya	Turkiya
1	Qoramol bosh soni (mln.bosh son)	2024-yilda	14,1	17,4	6,6	6,2	4,1	16,5
2	Chorva ozuqa ekin maydoni (mln. gektar)	2024-yilda	0,430	16,124	3,300	0,970	2,560	2,690
3	Go'sht ishlab chiqarish (ming. tonna)	2022-yilda	1571	6795,0	811,0	4387,1	1636	3601,0
		2023-yilda	1633,4	7034,6	874,8	4412,5	1724	3629,0
		2024-yilda	1709,2	11630	1383,0	4571,2	1215	4500,0
4	Import qilingan go'sht (ming tonna)	2024-yilda	112,6	310,7	157,6	858,8	59	363,5
		Ish/chiq nisbatan %	6,6	2,7	11,4	18,8	4,9	8,1
5	Qoramol go'shtining iste'mol bozoridagi narxi (1 kg AQSH dollarda)	2021-yilda	4,8	5,0	4,9	9,3	3,8	9,0
		2022-yilda	5,2	6,8	5,2	10,6	4,0	9,5
		2023-yilda	5,8	8,5	5,5	12,5	4,2	10,2
		2024-yilda	7,8	11,0	10,0	14,3	8,0	13

2024-yil ma'lumotlariga ko'ra, qoramol bosh soni bo'yicha yetakchi davlatlar Rossiya (17,4 mln bosh) va Turkiya (16,5 mln bosh) hisoblanadi. O'zbekiston 14,1 mln bosh bilan uchinchi o'rinni egallaydi. Polsha (6,2 mln bosh) va Qozog'iston (6,6 mln bosh) o'rtacha darajadagi ko'rsatkichlarga ega bo'lsa, Belarus (4,1 mln bosh) nisbatan kichikroq chorcachilik bazasiga ega.

Mazkur ko'rsatkich chorcachilik salohiyatining boshlang'ich resurs omili sifatida muhim ahamiyatga ega. Biroq ishlab chiqarish hajmi faqat bosh soniga emas, balki ishlab chiqarishning intensivligi, qo'llanilayotgan texnologiyalar hamda ozuqa bazasining rivojlanganlik darajasiga ham bog'liq.

Chorva ozuqa ekin maydoni bo'yicha Rossiya 16,124 mln gektar bilan mutlaq ustunlikka ega. Qozog'iston (3,3 mln gektar), Turkiya (2,69 mln gektar) va Belarus (2,56 mln gektar) o'rtacha ko'rsatkichlarga ega. O'zbekiston esa 0,430 mln gektar bilan nisbatan cheklangan resurs bazasiga ega hisoblanadi. Shunga qaramay, O'zbekistonda go'sht ishlab chiqarish hajmining oshib borayotgani ishlab chiqarish tizimining nisbatan intensiv modelga o'tayotganini ko'rsatadi. Bu esa mavjud resurslardan foydalanish samaradorligi ortib borayotganini anglatadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa va takliflar. Maqolada keltirilgan tahlil natijalariga asoslanib shuni ta'kidlash mumkinki, O'zbekistonda go'shtni qayta ishlash sanoatini rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar ichki bozorni barqaror ta'minlash hamda import hajmini muvozanatli darajada tartibga solishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Xalqaro tajribani o'rganish shuni ko'rsatadiki, yirik ishlab chiqaruvchi davlatlar — Avstraliya va Braziliya — go'shtni sanoat usulida qayta ishlash sohasida yuqori darajada integratsiyalashgan va eksportga yo'naltirilgan modelni shakllantirgan. Ushbu mamlakatlar son va sifat jihatidan xalqaro darajadagi yirik ishlab chiqarish tizimlariga ega bo'lib, qo'shimcha qiymat zanjirining barcha bosqichlarini o'z ichiga olgan samarali sanoat modelini yaratgan.

O'zbekistonda ham chorcachilik klasterlari doirasida go'shtni qayta ishlashni rivojlantirish bo'yicha muayyan ishlar amalga oshirilmoqda. Biroq ushbu tizimni bosqichma-bosqich to'liq integratsiyalashgan sanoat modeliga o'tkazish mahsulot sifati va iqtisodiy samaradorlikni yanada oshirishga xizmat qiladi. Bu esa mamlakatda aholi



ehtiyojini yuqori sifatli mahsulotlar bilan ta'minlash darajasini oshirish, eksport salohiyatini kengaytirish hamda milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. André-Zarna C., Simmen K., Albretsen K.H., Berg P., Njaastad E.B. Meat Industry 5.0: A Review of Technological Approaches and Robotic Systems in the Meat Processing Industry.
2. Wright R., Parekh S., White R., Losey D.P. Safely and Autonomously Cutting Meat with a Collaborative Robot Arm. – 2024.
3. Omonov A. Go'sht mahsulotlarining texnologik sifatini oshirish yo'llari // O'zbekiston qishloq xo'jaligi ilmiy jurnali. – 2021.
4. Rustamov Sh. Qayta ishlangan go'sht mahsulotlarida sifatni ta'minlash mexanizmlari // "O'zbekiston oziq-ovqat xavfsizligi" jurnali. – 2022.
5. Choriyev A.J. Go'sht-sut mahsulotlari texnologiyasi. – Toshkent: Book Trade, 2022. – 218 bet.
6. Australian Bureau of Statistics (ABS). Meat Processing Industry Data; MLA Processing Sector Reports.
7. FAO. World Food and Agriculture – Statistical Yearbook 2024. <https://openknowledge.fao.org/server/api/core/bitstreams/d784864f-7f28-49d2-903e-6680d09a9d97/content/cd2971en.html>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 3

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
